


## V. XIZMATLAR

Iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo‘lgan xizmatlar sohasining ahamiyati juda ulkan va dolzarb hisoblanadi. Ishlab chiqarish jarayonlarining tobora murakkablashib borayotganligi, bozorni kunlik va individual talablarga mos iste’mol mollari bilan to‘ldirish, innovatsion rivojlanishning jadal o’sishi jamiyat hayotining yangilanishiga olib keladi. Bu axborot, moliya, transport, sug‘urta va boshqa turdagи xizmatlarsiz amalga oshmaydi.


2024- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, 33 064 ta faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlardan, xizmatlar sohasida 21 358 ta korxona va tashkilotlar jalb qilingan.

**2024- yil 1- yanvar holatiga korxona va tashkilotlarning umumiyl sonida xizmatlar  
sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan  
korxona va tashkilotlarning ulushi, %  
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)**



Xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar va korxonalar umumiyl sonining 16 399 ta korxona va tashkilotlar kichik biznes subyektlarini tashkil etadi. 2024- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, ularning ulushi 76,8 % ni tashkil etdi.

**2024- yil 1- yanvar holatiga xizmatlar sohasiga jalb qilingan,  
kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi, %**



2024- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxona va tashkilotlar ulushi (48,1 %) yuqori.


Yaqin va uzoq xorij mamlakatlar bilan, shuningdek turizm sohasida o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar sonining o‘sishiga ta’sir ko‘rsatdi. Ularning ulushi 7,6 % ni tashkil etdi.

Tashish va saqlash faoliyati bilan shug‘ullanuvchi faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning xizmat ko‘rsatish sohasidagi korxona va tashkilotlar umumiy sonidagi ulushi 4,4 % ni tashkil etdi.

Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida xizmat ko‘rsatuvchi faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 3,8 % ni tashkil etdi.

Axborot va aloqa xizmatlari sohasida xizmatlar ko‘rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 1,8 % ni tashkil etdi.


**2024- yil 1- yanvar holatiga xizmatlar sohasida faoliyat  
ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat  
turlari bo‘yicha tarkibi, %**  
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)



Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2023- yil yanvar-dekabr oylarida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 19 518,4 mlrd. so‘mga teng bo‘ldi. O‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 111,0 % ni tashkil etdi.

Ko‘rsatilgan bozor xizmatlarning tarkibida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlaganda savdo xizmatlariga (30,5 %), transport xizmatlariga (20,8 %), avtotransport xizmatlariga (19,8 %), moliyaviy xizmatlariga (18,1 %) yuqori ulushlar ketma-ketligi kuzatildi.

**2023- yil yanvar-dekabr oylarida ko‘rsatilgan  
bozor xizmatlari tarkibi, %**



2023- yil yanvar-dekabr oylarida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o‘tgan yilga nisbatan 3 550,7 mlrd. so‘mga oshdi. Joriy yilning oldingi (2023- yil yanvar-sentabr oyiga) davriga nisbatan xizmatlar hajmi 5 625,3 mlrd. so‘mga ko‘paydi

Joriy yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o‘sishiga savdo xizmatlari (1 702,1 mlrd. so‘mga), transport xizmatlari (1 168,6 mlrd. so‘mga), avtomobil transport xizmatlari (1 077,9 mlrd. so‘mga), hamda Moliyaviy xizmatlar (982,7 mlrd. so‘mga) kabi xizmatlar hajmining oshishi omillardan biri hisoblanadi.

Ma’lumot uchun: 2022- yilning mos davrida moliyaviy xizmatlar – 2 656,6 mlrd. so‘m, savdo xizmatlari – 5 108,9 mlrd. so‘m, transport xizmatlari 3 405,2 mlrd. so‘m va aloqa va axborot sohasidagi xizmatlar – 780,0 mlrd. so‘mni tashkil etgan.

**2023- yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari  
bo‘yicha ishlab chiqarilgan xizmatharning asosiy ko‘rsatkichlari**

	<i>Hajmi, mlrd.so‘m</i>	<i>O‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati, %</i>
<b>Xizmatlar – jami</b>	<b>19 518,4</b>	<b>111,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	960,6	121,8
moliyaviy xizmatlar	3 526,1	121,6
transport xizmatlari	4 049,2	106,2
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	3 855,0	105,2
yashash va ovqatlanish xizmatlari	661,7	110,3
savdo xizmatlari	5 959,8	106,2
ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar	473,1	106,4
ta’lim sohasidagi xizmatlar	871,8	129,0
sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	276,4	112,6
ijara xizmatlari	417,0	101,0
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta’mirlash bo‘yicha xizmatlar	655,8	105,1
shaxsiy xizmatlar	683,1	109,5
me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	240,4	102,4
boshqa xizmatlar	743,4	118,0

Eng yuqori o'sish sur'atlari ta'lif sohasidagi xizmatlar 129,0 %, Aloqa va axborotlashtirish xizmatlar 121,8 %, moliyaviy xizmatlari 121,6 % qayd etildi.

Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari ijara xizmatlari 101,0 %, me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar 102,4 % hamda kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar 105,1 % da kuzatildi.


Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining uchdan bir qismiga yaqini savdo xizmatlarini tashkil etdi. 2023- yil yanvar-dekabr oylarida uning ulushi 30,5 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori ulushlarni transport xizmatlari 20,8 %, moliyaviy xizmatlar 18,1 % egallaydi.

2023- yil yanvar-dekabr oylarida savdo xizmatlari hajmi 5 959,8 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 30,5 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 850,9 mlrd. so'mga oshdi.

Aholining daromadlari darajasining oshishi bilan iste'mol talabi va savdo aylanmasi o'smoqda.

**Savdo xizmatlari tarkibi ulushi, % da**



Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega.

2023- yil yanvar-dekabr oylarida uning ulushi 83,6 % ni tashkil etdi. Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 11,1 % ga yetdi. Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 5,3 % ni egallaydi.


Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish fuqarolik jamiyatida va bozor iqtisodiyotida yuz beradigan jarayonlarga ijobiy ta'sir ko'rsatish uchun zarur.

# *Qashqadaryo viloyatining ijtimoiy iqtisodiy holati*



Hayotning ko‘pgina sohalarida AKT joriy etilishi va rivojlanishi jamiyat, hukumat va biznes bilan bog‘liq ko‘plab tashqi va ichki jarayonlarni soddalashtirish va tezlashtiradigan muhim element hisoblanadi.

## **2023- yil yanvar-dekabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, %**




2023- yil yanvar-dekabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 960,6 mld. so‘mni tashkil etdi. 2022- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o‘sishi 180,6 mld. so‘mni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog‘i, yo‘ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) katta qismni egallab, uning ulushi 94,0 % ni tashkil etadi.

Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta’minlash bo‘yicha xizmatlar 91,9 % ulush bilan yetakchilik qilmoqda. Yashash bo‘yicha xizmatlar ulushi 8,1% ga to‘g‘ri keladi.


## **Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar tarkibi, %**



Valyuta siyosatini erkinlashtirish, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlash ko‘lamini kengaytirish, shuningdek, moliyaviy tashkilotlar tomonidan innovatsion xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha amalga oshirilgan islohotlar moliyaviy xizmatlar hajmini oshishiga ta’sir ko‘rsatdi.

2023- yil yanvar-dekabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 3 526,1 mlrd. so‘mga teng bo‘lib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati esa 121,6 % ni tashkil etdi.

### **2023- yil yanvar-dekabr oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %**



Moliyaviy xizmatlarning eng katta qismini pul-kredit sohasidagi vositachilik bo‘yicha xizmatlar (90,3 %) tashkil etadi.

Bugungi kunda o‘quv jarayonini sifatli va samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida maktablarni zamonaviy avtomatlashtirilgan laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi, darsliklar va yangi avlod darsliklari bilan ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

2023- yil yanvar-dekabr oylarida ta’lim sohasidagi xizmatlar hajmi 871,8 mlrd. so‘mga teng bo‘ldi. O‘tgan yilga nisbatan o‘sish 129,0 % ni tashkil etdi.

Ushbu davrda yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar hajmi 661,7 mlrd. so‘mga teng bo‘ldi. Ko‘rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarning ulushi 3,4 % ga yetdi.

**2023- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo‘yicha  
xizmatlar ishlab chiqarish hajmi**


	<i>Hajmi, mlrd. so‘m</i>	<i>O’tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati, % da</i>
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>19 518,4</b>	<b>111,0</b>
Qarshi sh.	5 190,2	113,9
Shahrisabz sh.	997,9	111,4
G‘uzor	804,7	110,2
Dehqonobod	641,4	110,1
Qamashi	1 159,2	108,7
Qarshi	1 289,5	110,0
Koson	1 247,3	111,1
Kitob	1 366,7	110,0
Mirishkor	877,1	110,0
Muborak	1 169,0	109,4
Nishon	828,5	110,3
Kasbi	876,5	109,0
Ko‘kdala	335,9	110,9
Chiroqchi	806,4	110,2
Shahrisabz	953,5	109,1
Yakkabog‘	974,6	110,5

## *Qashqadaryo viloyatining ijtimoiy iqtisodiy holati*

Hududlar o‘rtasida eng katta hajm Qarshi shahri (5 190,1 mlrd. so‘m), Kitob tumani (1 366,7 mlrd so‘m), Qarshi (1 289,5 mlrd. so‘m), Koson tuman (1 247,3 mlrd. so‘m) va Muborak tuman (1 169,0 mlrd.so‘m) tumanlariga to‘g‘ri keladi.

Eng kam hajm Ko‘kdala (335,9 mlrd. so‘m), Dehqonobod (641,4 mlrd. so‘m), G‘uzor tumani (804,7 mlrd. so‘m) va Chiroqchi (806,4 mlrd. so‘m) da kuzatilmoqda.


### **2023- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo‘yicha ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining o‘sish sur’ati, %**



Yuqori o‘sish sur’atlari Qarshi shahar – 113,9 %, Shahrисабз shahar – 111,4 %, Koson tumanı – 111,1 % va Ko‘kdala tumani 110,9 % kuzatildi.

Zamonaviy O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari milliy va mahalliy manfaatlarini hisobga olgan holda Respublikaning har bir iqtisodiy salohiyatida tuman va viloyatlarining barcha resurslaridan oqilona foydalanishiga bog‘liqdir.

**2023- yil yanvar-dekabr oylarida ko‘rsatilgan bozor  
xizmatlari umumiy hajmida hududlarning ulushi, %da**




- Qarshi sh. ■ Shahrisabz sh. ■ G'uzor ■ Dehqonobod
- Qamashi ■ Qarshi ■ Koson ■ Kitob
- Mirishkor ■ Muborak ■ Nishon ■ Kasbi
- Ko'kdala ■ Chiroqchi ■ Shahrisabz ■ Yakkabog'

Hududlar o‘rtasida xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulushni Qarshi shahri (26,6 %), Kitob tumani (7,0 %), Qarshi tumani (6,6 %) va Koson (6,4 %) tumanlari egallaydi.

Hududlar o‘rtasida eng kam ulush Ko‘kdala (1,7 %), Dehqonobod tumani (3,3 %) va G‘uzor (4,1 %) tumanlariga to‘g‘ri keladi.

**Hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor  
xizmatlarining hajmi va o'sish sur'ati  
(2023-yil yanvar-dekabr oylari uchun)**



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlar hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sishi kuzatilmoqda. 2022-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan hajm 908,0 ming so'mga oshib 5 542,6 ming so'mga teng bo'ldi.

Tumanlar orasida yuqori ko'rsatkichga ega Qarshi shahrida 17 762,6 ming so'm, Muborak tumanida 12 623,7 ming so'mni tashkil etti.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning eng yuqori o'sish sur'atlari Qarshi shahrida (111,5 %) Shahrisabz shahrida (109,6 %), va Ko'kdala tumanida (109,3 %) kuzatildi.

Uncha yuqori bo'limgan o'sish sur'atlari Qarshi (107,3 %), Kasbi (106,6 %), Qamashi (106,3%) va Chiroqchi (106,2 %) tumanlarida qayd etildi.

**2023- yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha  
savdo xizmatlari hajmi**



<b>Qarshi sh.</b>	<b>1192,3 mlrd. so'm</b>
<b>Shahrisabz sh.</b>	<b>205,0 mlrd. so'm</b>
<b>G'uzor</b>	<b>223,2 mlrd. so'm</b>
<b>Dehqonobod</b>	<b>162,0 mlrd. so'm</b>
<b>Qamashi</b>	<b>384,7 mlrd. so'm</b>
<b>Qarshi</b>	<b>465,0 mlrd. so'm</b>
<b>Koson</b>	<b>573,6 mlrd. so'm</b>
<b>Kitob</b>	<b>576,6 mlrd. so'm</b>
<b>Mirishkor</b>	<b>303,5 mlrd. so'm</b>
<b>Muborak</b>	<b>315,3 mlrd. so'm</b>
<b>Nishon</b>	<b>222,7 mlrd. so'm</b>
<b>Kasbi</b>	<b>386,7 mlrd. so'm</b>
<b>Ko'kdala</b>	<b>116,6 mlrd. so'm</b>
<b>Chiroqchi</b>	<b>285,3 mlrd. so'm</b>
<b>Shahrisabz</b>	<b>175,1 mlrd. so'm</b>
<b>Yakkabog'</b>	<b>372,3 mlrd. so'm</b>


Savdo xizmatlari hajmi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Qarshi shahrida (1192,3 mlrd. so'm), Kitob (576,6 mlrd. so'm) va Koson (573,6 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

Savdo xizmatlari eng kichik ko'rsatkich Ko'kdala (116,6 mlrd. so'm) tumanida qayd etildi.

2023- yil yanvar-dekabr oylarida savdo xizmatlari hajmi 5959,8 mlrd. so'mga teng bo'ldi, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 106,2 % ni tashkil etdi.

## *Qashqadaryo viloyatining ijtimoiy iqtisodiy holati*


**2023- yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha  
savdo xizmatlarining o'sish sur'ati, % da**



2022- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan savdo xizmatlarida eng yuqori o'sish sur'ati Ko'kdala (112,7 %), Koson (112,1 %) va Kitob tumanlarida (111,5 %) kuzatildi.

Eng kam o'sish sur'ati Qarshi shahar (103,4 %) va Dehqonobod tumanida (100,4 %) qayd etildi.

**2023- yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha  
savdo xizmatlari ulushi, % da**




Savdo xizmatlari hajmida eng katta ulushni shahar va tumanlar o‘rtasida Qarshi shahri (20,1 %) va Kitob (9,7 %) tumanlari egallaydi.

Shahar va tumanlar o‘rtasida eng kam ulush Dehqonobod tumanida (2,7 %) Ko‘kdala (2,0 %), tumanlariga to‘g‘ri keladi.

2023- yil yanvar-dekabr oylarida transport xizmatlari hajmi 4 049,2 mlrd. so‘mga teng bo‘ldi. O‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati 106,2 % ni tashkil etdi.

### **2023- yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo‘yicha transport xizmatlarining o‘sish sur’ati va hajmi**



Transport xizmatlari hajmi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Qarshi shahrida (582,0 mlrd. so‘m) va Qarshi tumanida (394,5 mlrd. so‘m) qayd etildi.

Transport xizmatlari hajmi bo‘yicha eng kichik ko‘rsatkich Ko‘kdala tumanida (74,9 mlrd. so‘m) qayd etildi.